

INTERNET TARMOG'I ORQALI GIYOHVANDLIK VOSITALARI NOQONUNIY
AYLANMASINI ANIQLASH VA FOSH ETISH

Kungradbaeva Gumisay Utegen qizi

Bojxona Qo'mitasi Bojxona institute

“Yurisprudensiya” ta'lim yo'nalishi 3-kurs kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15150365>

Annotatsiya. So'nggi yillarda giyohvandlik vositalari savdosi shakllarining turli xillari paydo bo'lmoqda va shunga bog'liq ravishda internet tarmog'idan anonim tarzda foydalanish uchun jinoyatchilar tomonidan har xil saytlar orqali fuqarolar ayniqsa yoshlarga ta'sir o'tkazilib, giyohvandlik vositalari noqonuniy savdosi amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada internet tarmog'i orqali sodir etilayotgan giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushbu jinoyatlarni aniqlash va qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, narkojinoyatlar, darknet, telegram va Off the record messenjerlari, administrator, diller, tomchi.

IDENTIFYING AND EXPOSING ILLEGAL DRUG TRAFFICKING VIA THE
INTERNET

Abstract. In recent years, various forms of drug trafficking have emerged, and in connection with this, criminals have been influencing citizens, especially young people, through various sites to use the Internet anonymously, and illegal drug trafficking is being carried out.

This article shows the specific features of the illegal circulation of drugs committed through the Internet and the identification and fight against these crimes by law enforcement agencies.

Keywords: drugs and psychotropic substances, drug crimes, darknet, telegram and Off the record messengers, administrator, dealer, drop.

ВЫЯВЛЕНИЕ И РАЗОБЛАЧЕНИЕ НЕЗАКОННОГО ОБОРОТА НАРКОТИКОВ
ЧЕРЕЗ ИНТЕРНЕТ

Аннотация. В последние годы появились различные формы наркоторговли, в связи с этим преступники используют различные сайты для воздействия на граждан, особенно молодежь, с целью анонимного пользования Интернетом и осуществления незаконного оборота наркотиков. В статье рассматриваются особенности незаконного оборота

наркотиков, совершаемого через Интернет, а также выявление и пресечение данных преступлений правоохранительными органами.

Ключевые слова: наркотические и психотропные вещества, наркопреступления, даркнет, телеграм и мессенджеры Off the record, администратор, дилер, дрон.

Oxirgi o'n yil ichida giyohvand vositalarni iste'mol qiluvchilar soni chorakga oshib, 296 million kishiga yetdi. Noqonuniy bozorlarda sintetik moddalar hukmronlik qilmoqda, deyiladi BMT hisobotida. Xuddi shu davrda giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq kasalliklardan aziyat chekadiganlar soni 45 foizga keskin oshib, 39,5 million kishiga etdi. Shu bilan birga, davolanish imkonsiz bo'lib qolmoqda: BMT ma'lumotlariga ko'ra, har 5 kishidan faqat 1 nafari giyohvandlikdan davolanishga ishonishi mumkin. [1]

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda Respublika hududida giyohvand, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi vositalar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar orasida yoshlar 74 foizga, shu jumladan, talabalar 21 foizga, maktab o'quvchilari 6 barobarga oshgan. Vaziyatga aynan qanday omillar sabab bo'lmoxda?

Bunga asosiy sabab so'nggi yillarda butun dunyoda giyohvandlik vositalari savdosining deyarli to'liq internetga ko'chib o'tganligidir. Bugungi kunda giyohvandlik va psixotrop vositalar qo'lma-qo'l savdo orqali yetkazilmayapti, barcha jarayonlar internet orqali hal qilinmoqda: buyurtma onlayn kelishuv bilan jo'natiladi va internet orqali to'lov qilinadi.

Jarayonda "tovar"ni bir shaxs kelishilgan manzilga yashirib ketadi, oluvchiga lokatsiya haqida xabar beriladi va xaridor uni o'sha joydan olib ketadi. Bunday holatda sotuvchi va oluvchi o'zaro duch kelmasligi sababli "savdo" xavfsizligi ta'minlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyat doimo davlat va jamiyatning alohida e'tiborida bo'lib keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-may kunidagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Hozirgi vaqtida davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan giyohvandlik tahdidiga qarshi kurashishning yagona tizimini yaratish bo'yicha bir qator tashkiliy-huquqiy, profilaktik va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu tizimda giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomala qilinishiga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlaridan biri huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan mazkur jinoyatlarni oldini olish va aniqlashdan iborat.

O‘tkazilayotgan chora-tadbirlarga qaramay mazkur turdagи qonunbuzarlik yildan-yilga oshib, turlari ko‘payib bormoqda, masalan: 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida tezkoramaliy va tezkor profilaktik tadbirlar natijasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan 5257 ta jinoyat aniqlangan.

Ushbu jinoyatning asosiy qismi hozirgi kunda asosan internet tarmog‘i orqali sodir etib kelinmoqda[2].

Axborot texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi, xalqaro terrorizm, qurol-yaroq savdosi va boshqa shu kabi jinoyatlarni sodir etishda internet tarmoqlaridan foydalanish holatlari ko‘payib bormoqda.

AQSH, Evropa ittifoqi davlatlari, Ukraina, Rossiya va Belarus Respublikasida giyohvandlik vositalari savdosining salmoqli qismi aynan internet tarmoqlari orqali amalga oshirilmoqda.

Ushbu holatlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- giyohvandlik vositalarining mayda chakana savdosi bevosita kontaktsiz va tomonlarning shaxsini sir saqlagan holda tashkil etilishi;

- tashkilotchilar xavfsizligini ta’minlovchi murakkab ierarxiya sxemalarining tashkil etilishi;

- pul mablag’larini bank sektoridan tashqari qalbaki elektron hisoblar orqali offshor zonalarga tranzaksiya qilish va bu pullarni legallashtirish;

- internet tarmoqlarida narkojinoyatchilikni aniqlash va fosh etishda huquq tartibot idoralarining tajribasi yetarlicha emasligi;

- keng auditoriya va xaridorlar bazasi;

- qo’shimcha ish kuchini internet-reklama orqali jalg etish;

- dunyoning deyarli barcha davlatlarida narkobiznesni tashkil etish imkoniyati

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan giyohvandlik va psixotrop moddalar sotish jinoyatini fosh etishda tezkor xodim, surishtiruvchi va tergovchining dastlabki surishtiruv jarayonida bo‘ladigan hamkorlikning samaradorligi ko‘p jihatdan quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

Hamkorlik taktikasini qo'llayotgan sub'ektlar faoliyatining vositalari, usullari va huquqiy bazasi o'zaro farq qilishi

Ichki ishlar organlari tezkor xodimlarining surishtiruv va tergov yo'nalishidagi xodimlar bilan dastlabki tezkor surishtiruv chora-tadbirlarini amalga oshirishda hamkorlikning aniq maqsad va yo'nalishlarini belgilab olish zarurligi

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan giyohvandlik va psixotrop moddalar sotish jinoyatini o'z vaqtida aniqlash va fosh etishda, shuningdek bunday turdag'i jinoyatlarning oldini olish bo'yicha zarur qarorlar qabul qilishda faoliyatning huquqiy asosini ta'minlab beruvchi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihamonini ishlab chiqish zarur.

Internet olamida qidiruv tizimlar tomonidan indeksatsiya qilinmaydigan, "Tor" yoki "soyadagi internet" ("Darknet") deb nomlanuvchi anonim tarmoq tez rivojlanib bormoqda. "Tor" ma'lumotlarni shifrlangan ko'rinishda uzatuvchi virtual tunnellar tarmog'i bo'lib, nazorat qilishdan himoyalangan tarzda tarmoqli ularish imkoniyatini beradi.

Shu o'rinda ma'lumot uchun ta'kidlash joizki, "Tor" tizimi 2001-yilda AQSH harbiy dengiz kuchlarining tadqiqot laboratoriysi va Istiqbolli mudofaa ilmiy-tadqiqotlar agentligi bilan hamkorlikda federal buyurtma asosida yaratilib, maxfiy bo'lgan. Bir necha yillardan so'ng loyihamon maxfiylik grifi yechilib, tizimning kodi oshkor etilgan. Keyinchalik "Electronic Frontier Foundation" nodavlat notijorat tashkiloti loyihamoni qo'llab-quvvatlab, uning kengayishiga katta hissa qo'shgan.

"Soyadagi tarmoq"larning xususiyati – to'liq maxfiylik va provayderning serveriga bog'liq bo'lmasslik, bu esa, o'z navbatida, foydalanuvchilar qanday ma'lumotlar almashayotganini aniqlashni istisno etadi. "Tor"ning yashirin xizmatlari foydalanuvchilarga o'zining joylashgan real manzilini sir saqlagan holda veb-saytlar tashkil etish imkonini beradi.

Mutaxassislar fikricha, yuqorida keltirilgan saytlar "Tor" texnologiyasining nozik joylari mavjudligidan emas, balki tashkilotchilarning shaxsiy ehtiyyotsizligi tufayli fosh etilgan. Shunday qilib, "Tor" tizimining yuqori darajada himoyalangani butun dunyo bo'ylab narkotiklar savdosini bilan shug'ullanuvchi veb-saytlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. "Tor" tizimida rus tilidagi saytlar ilk bor 2012-yilda paydo bo'lgan.

“Tor Metrics” sayti ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda “soyadagi internet”dan foydalanish bo‘yicha Rossiya AQSHdan keyingi ikkinchi o‘rinni egallamoqda. Har kuni ushbu anonim tizimdan foydalanuvchilar 11 foiz, ya’ni 230 mingga yaqin shaxslar bevosita Rossiyadan aloqaga chiqadi[3].

Bundan tashqari, heroin, kokain, va amfetaminlarni sotuvchi dillerlar narxi 1000 AQSH dollari bo‘lgan litsenziya sotib olishlari shart. “Tor” tizimida narkotiklarning savdosi uchun juda murakkab sxemalar yaratiladi. Sotuvchilarning aksariyati xabarlar almashuvida nihoyatda xavfsiz bo‘lgan “Telegram” messenjeri yoki “Off The Record” nomli shifrlangan “Tor” tizimidan foydalanadilar. Ma’lumki, ushbu messenjerlar serverlariga huquqni muhofaza qilish idoralarining qo‘li yetmaydi. Rus tilidagi veb-saytlarda Rossiyada aylanishi taqiqlangan yoki cheklangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro‘yxatiga kiritilmagan narkotiklarning yangi turlari savdosi keng rivojlangan. Ularning aksariyati Xitoyda ishlab chiqarilgan. Tovarni pochta orqali jo‘natish uchun jinoyatchilar ayrim narkotiklarning eritmasiga qog‘ozni shimdrib tayyorlaydi.

Onlayn savdo ekotizimida turli rol rejimlariga ega bo‘lgan bir nechta aktyorlar mavjud:

1) Administratorlar. Administratorlar bozorning samarali ishlashini ta’minlash uchun javobgardir.

2) Dilerlar. Dilerlar o‘z mahsulotlarini bozorda sotadigan dori vositalarini etkazib beruvchilardir. Odatda ular o‘zlarining savdo sahifalarini yaratish orqali buni amalga oshirishadi.

3) Xaridorlar. Xaridorlar reklama qilingan dori-darmonlarni sotib oladigan shaxslardir. Xaridorlar, shuningdek, xaridlarni amalga oshirgandan so‘ng sharhlar qoldiradilar va turli bloglar va forumlarda muhokamalarda qatnashadilar.

4) Tomchilar. giyohvand moddalarni o‘z manziliga etkazib beradiganlardir[4].

Ayrim davlatlarda jinoyatchilarni aniqlash uchun qalbaki serverlardan foydalaniladi.

Masalan, Italiyada II Vning maxsus “DRUGS@ONLINE” bo‘limi qalbaki narkosaytlarni tuzib, sotuvchilar va hisob raqamlarni aniqlashda nazorat ostidagi tezkor faoliyatni olib boradilar. Ammo qayd etilgan misollar individual bo‘lib, har bir jinoyatni ochish va gumonlanuvchini fosh etishda huquqni muhofaza qilish organlaridan alohida o‘ziga xos yondashuv talab etiladi [5].

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda internet orqali sodir etilayotgan narkojinoyatlar soni oshib bormoqda va ushbu jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bir qancha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, internetdan foydalangan holda giyohvandlik vositalari noqonuniy savdosini tekshirish murakkab va juda ko‘p resurslarni, kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislarini va turli huquqni muhofaza qilish idoralari va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida ushbu sohada yetuk mutaxassislar tayyorlash va fosh etishda zarur bo‘lgan texnik vositalarni yaratish va doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

REFERENCES

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/27/drug-report/>
2. <https://stat.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar to‘g‘risida statistik ma’lumotlar.
3. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash: Xorijiy tajriba Karimov Jahongir Shukur o‘g‘li <https://doi.org/10.5281/zenodo.14619178>
4. Huquq va burch HB.UZ jurnali 04.12.2023 yil soni
5. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashning milliy va xorijiy tajribasi: bugungi holati va qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. -B. 14-15